

**MORFOLOGIK VA FONETIK SHAKLLARNING NUTQDA QO'LLANNISH  
DARAJASINI ANIQLASHNING TARIXIY AHAMIYATI VA AMALIY  
BOSQICHLARINI TADBIQ QILISH**

*1-umumta'lim maktabining ona tili  
va adabiyot fani o'qituvchisi*  
**Egamova Oltininoj Ashuraliyevna**  
*egamovaoltinoy59@gmail.com*  
*+99893-322-55-84*

O'zbek tili morfologik jihatdan agglyutinativ, grammatic shakllarning ko'pligi va serqirraligiga ko'ra boy til. Har bir grammatic shaklning o'ziga xosligi uning nutqda turli uslublar, og'zaki va yozma shaklda voqelanishida namoyon bo'ladi. Morfologik shakllarning og'zaki va yozma nutqda qo'llanish darajasini aniqlash, ularni faol va nofaol turlarga ajratish mezonlarini ishlab chiqish, sermahsul morfologik shakllarni guruhlarga bo'lish o'zbek tilini xorijliklarga bosqichma-bosqich va maqsadli o'qitish jarayonini osonlashtirishga, hozirgi o'zbek adabiy tilida morfologik shakllarning ishlatalishida miqdor va sifat jihatidan faolligini aniqlashda dasturulamal sifatida xizmat qiladi, xususan, o'zbek tili korpusida morfologik belgilarning darajali jamlanmasining yaratilishini ko'zda tutadi. Morfologik birlklarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlashda jahon va o'zbek tilshunosligida bu borada qilingan ilmiy tadqiqotlarning sarhisobi va tahlilini amalga oshirish zarur. Ma'lum tadqiq metodologiyasi asosida birlamchi vazifalar aniqlanib, bajariladigan ishlarning "yo'l xaritasi"ni tuzish har qanday tadqiqot uchun muhimdir. Jahon tilshunosligida morfologik mahsuldorlik derivatsional morfologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lib, u hosilaviy morfologiyada til foydalanuvchisining bir qancha omillariga bog'liq tarzda o'rganildi.

Morfologik vositalarni nutqiy uslublarda qo'llash usullari va fonetik shakllarning nutqda qo'llashda turli bosqichlarni amalga oshirishimiz mumkin. Til — inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Uning tuzilishi va ifoda imkoniyatlari turli darajadagi vositalar orqali namoyon bo'ladi. Shunday vositalardan biri bu — morfologik vositalardir. Ular so'z yasash, so'z turkumlari, shakl yasovchi qo'shimchalar orqali tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir nutqiy uslubda morfologik vositalar maqsadga muvofiq tarzda qo'llanadi va bu holat uslubning xarakterini belgilaydi. Ilmiy uslubda. Ilmiy uslubda morfologik vositalar aniqlik va mantiqiylikni ta'minlashda muhim o'rinni tutadi. Masalan, sifatdosh va fe'lning zamon shakllari ilmiy bayonning aniq vaqt oralig'ida ifodalanishiga xizmat qiladi:—Ushbu hodisa kuzatilgan holatlar asosida o'rganildi. Bu uslubda shuningdek, ko'plik qo'shimchalari, passiv va zamonli fe'llar keng

qo'llanadi. Publitsistik uslubda morfologik vositalar ko'proq emotSIONAL ta'sir kuchini oshirish, o'quvchiga murojaat qilish, undash maqsadida ishlataladi. Masalan, buyruq mayli, orttirma daraja, mustahkamlovchi yuklamalar keng qo'llaniladi.

So'z yasalishining mahsuldorligi bo'yicha korpusga asoslangan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, morfologik mahsuldorlik muammosi bilan bog'liq savollarga uzoq vaqt dan beri izlanadigan yechimlarni topish uchun katta kompyuter korpuslaridan samarali foydalanish mumkin. Ayniqsa, Baayen va Renouf tomonidan tuzilgan korpuslar mahsuldorlikni nutq turiga ko'ra farqlamay turib, bir qator affikslarning mahsuldorligi haqidagi da'volarini bayon qilganlar, garchi odatda, hosila qo'shimchalarining ayrim turlari boshqa matn turlariga nisbatan ko'proq mos keladi, deb taxmin qilinadi. Ushbu keng tarqalgan taxmin qay darajada to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi va u yuqorida aytib o'tilgan tadqiqotlar natijalarini qanday buzib ko'rsatishi mumkinligi hozircha noma'lum. Nutq uslublarining o'zgarishi bo'yicha tadqiqotlar turli uslublar yoki matnlar o'rtasida kuzatilishi mumkinbo'lgan sintaktik va leksik farqlarning butun doirasi mavjudligini juda batafsil ko'rsatdi. Bunday xususiyatlarning klasterlashuvi hatto nutqning ma'lum bir turini belgilashda ham ishlatalishi mumkin.

Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket kelayotgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida o'zgarishlarga uchrashi fonetik hodisalar deyiladi.(Tovush tushishi, tovush almashishi, tovush ortishi). Asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida so'zda tovush o'zgarishi fuzya ham deyiladi. Fonetik hodisalar unli tovushga ham, undosh tovushga ham xos.

Morfologik vositalar va fonetik tamoyillarning nutqda qo'llanishi tilning ichki tizimini tashkil qiluvchi muhim birliklar bo'lib, ularning nutqiy uslublarda to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llanilishi har bir matnning uslubiy aniqligi, mazmuniy yuksakligi hamda ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Zamonaviy va tezkor dunyoda jamiyatdagi barcha sohalarda, shuningdek, tilning ijtimoiy holatida ham o'ziga xos o'zgarishlar shakllanadi. Insoniyat hayotining yengillashuvi, zamonning "tez va oson" formulada shiddat bilan rivojlanishi tildan foydalanishda ham qulaylikka intilishni namoyon qiladi. Ayniqsa, tilning nutqda qo'llanish masalasida tizimlilik va optimallikka erishish birlamchi omildir. Tilshunoslikda morfologik sath yoki paradigmani nutqda qo'llash va voqelanishiga ko'ra darajalash tilni maqsadli tarzda o'qitilishini, boshqa sath birliklari bilan birgalikda bir tizim mushtarakligini ta'minlaydi.

O'zbek tilshunosligida o'tgan asrda morfostatistik tadqiqotlar leksikostatistikaga qaraganda nisbatan tor doirada amalga oshirilgan. Asosiy e'tibor badiiy va publitsistik matnlar tarkibida o'z va o'zlashgan qatlama qid so'zlarning statistik holatiga qaratilgan. O'zbek tilida lingvotatistikaning asoslarini yaratish to ma'noda S.Rizayev tadqiqotlari bilan bog'liq. Olim ilmiy ishida yangi so'zlarning

faollik darajasini, morfologik va etimologik miqdoriy tahlilini so‘zlarning kamayib borish tartibida tizimlaydi. Tadqiqot matn shakliga ko‘ra faqat yozma matnlarni, morfologik jihatdan esa fe’llarning o‘zak morfemasiga ko‘ra nutqda qo‘llanish holatini tekshiradi. Bunga ko‘ra fe’l so‘z turkumi nutqda qo‘llanish darajasiga ko‘ra bog‘lovchi va olmoshlardan keyingi o‘rinni egallaydi. S.Rizayev lingvostatistik sohasidagi ishlarning salmog‘i birmuncha kamligi, ayniqsa, so‘z shakllar tarkibidagi barcha morfemalarning umumiy statistik strukturasi hanuzgacha yaratilmaganligihaqida fikr bildiradi.

O‘zbek tilida morfologik birliklarning nutqda qo‘llanish darajasini aniqlashda, avvalo, ularning turlari, kategorial xususiyatlari, miqdoran tarkibi va adabiy tilidagi sinxronik varaintlarining ro‘yxati shakllantiriladi. Nutqda qo‘llanishi bilan bog‘liq jihatlar nutq uslublari va shakllari doirasida yig‘ilgan og‘zaki va yozma matnlar asosida statistik metodda ko‘rib chiqiladi. Shundan so‘ng ularning nutqdagi mahsuldarligi va muayyan tamoyillar asosida faol va nofaol birliklarga ajratiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Rizayev S. O‘zbek tilining lingvostatistik tahlili. Diss. – Toshkent,
2. Xamroyeva Sh. O‘zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta’minoti. Avtoreferat. – Farg‘ona, 2021. 76 b.4.
3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1qism, T., 1980; Reformatskiy A.A., Vvedeniye v yazikovedeniye, M., 1998; Jamolxonov H.A., Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1qism, T., 2004
4. Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya. Monografiya. Toshkent, 2008. –522 b.
5. Nurmonov A., O‘zbek tilshunosligi tarixi, T., 2002. 132-be7
6. Ismoilov B. “Dunyoni bilishda til va tafakkur birligi.-T.,1966.12-bet